

5-SINF HAYDAROBOD ONA TILI DARSLIGIDA LUG‘ATLAR USTIDA ISHLASH

Parxiddinova Diyora Kamoliddin qizi

ToshDO‘TAU 3-kurs talabasi

parxiddinova.diyora@icloud.com

Annotatsiya: ushbu maqolada 5-sinf Haydarobod ona tili (ingliz tili) darsligida lug‘atlarning berilishi, lug‘atlar ustida ishlash usullari, izohlar va lug‘atlarni mashq va topshiriqlar yordamida mustahkamlash muhim ekanligi to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: lug‘atlarning berilishi, izoh (glossary), lug‘at ustida ishlash (vocabulary), mashq va topshiriqlar, krossvord, so‘z labirinti.

Maktab ta’limida ona tili darslarida lug‘atlardan foydalanishga keng e’tibor qaratiladi. O‘quvchilar darslikda berilgan mashq va topshiriqlar orqali turli xil lug‘atlarga murojaat qiladi. Bu jarayon esa o‘sha tilda turli xil lug‘atlarning mukammal holda mavjud bo‘lishini talab qiladi. O‘zbek leksikografiyasining dolzarb muammolaridan biri ham shu masala, ya’ni o‘zbek tilida har sohaga oid, batafsil foydalana olish imkonini beradigan lug‘atlarning soni kam, afsuski. Bugungi kunda o‘zbek leksikografiyasining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlaridan eng birlamchisi ham turli xil lug‘atlar yaratishdir. Lug‘atlar yaratishda shunchaki nazariy va amaliy ma’lumotlarning o‘zi yetarli emas, bunda xorijda lug‘at yaratish, xorij darsliklarida lug‘atlar ustida ishlash yo‘llarini, qisqa qilib aytganda, lug‘atshunoslik bo‘yicha xorij tajribasini o‘rganish ham g‘oyatda muhim.


Biz xorij darsliklaridan biri – 5-sinf Haydarobod ona tili darsligi¹ bilan tanishib chiqdik va darslikning quyidagi yutuq jihatlari aniqladik:

- darslikda o‘quvchilarning lingvistik ko‘nikmalari bilan birgalikda nutqiy ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga qaratilgan mashq va topshiriqlar mavjud;
- darslik dizayni, ma’lumotlarning berilishi o‘quvchi yoshiga mos tanlangan va o‘quvchilarda ushbu darslikdan foydalanish jarayonida zerikish holatlari uchramaydi;
- darslikda lingvistik bilimlar o‘zgacha, qiziqarli, induktiv metod asosida berilgan;
- darslikda lug‘atlar bilan ishlashga oid mashq va topshiriqlarga alohida o‘rin ajratilgan.

Quyida esa ushbu darslikdan olingan lug‘atlar bilan ishlashga doir mashq va topshiriqlarni qisqacha tahlil qilamiz. Ushbu darslikda turli xil matnlardan, asosan,

¹ My English world. Class 5. The government of Telangana, Hyderabad. Department of school education. 2019-20.

o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishga doir berilgan matnlardan so‘ng matnda uchraydigan so‘z, so‘z birikmalari va iboralarning qisqacha izohi – **glossary** berib ketiladi. Masalan, Let’s be friend (Do‘st bo‘laylik) matnidan keyin quyidagi izohlar keltirilgan.



Ushbu darslikda lug‘atlarning berilishida yana bir yaxshi jihat ko‘zga tashlanadi, ya’ni izohlanayotgan so‘z yonidan uning qanday morfologik birlik ekanligi ham berib ketiladi. Misol uchun, ushbu izohda keltirilgan *yelled* so‘zi fe‘l (verb) bo‘lib, u *baland baqirmoq* ma’nosini anglatadi.

Shu kabi matnlardan keyin berilgan izohlar o‘quvchilarning matni yanada yaxshiroq tushunishiga xizmat qiladi, yana bir afzalligi shundaki, o‘quvchilar izoh, lug‘at so‘zlarini kontekst ichida o‘zlashtirishiga yordam beradi. Bu usulni lug‘atlarda, xususan, o‘quv lug‘atlarida qo‘llash anchagina samara beradi. Chunki, o‘quvchi so‘zlarni ma’lum kontekstda, nutqiy vaziyatda o‘rganar ekan, uning qay holatda qanday kelishini ham o‘rganadi va o‘zi mustaqil o‘z nutqida qo‘llay oladi.

Izohlardan tashqari lug‘atlar ustida ishlashga doir mashq va topshiriqlar mavjud bo‘lib, bu kabi topshiriqlarning asosini turli xil ko‘rinishdagi krossvordlar, so‘z qutilari, rasmi o‘yinlar tashkil qiladi.



Vocabulary

I. There are five names each of fruits and vegetables in the word maze given below. Find and circle their names. One is done for you.


a	i	k	b	e	a	n	s
p	o	t	a	t	o	a	r
p	r	o	n	k	d	p	a
l	a	m	a	n	g	o	d
e	n	a	n	l	u	s	i
m	g	t	a	g	a	k	s
n	e	o	c	m	v	t	h
b	r	i	n	j	a	l	f

Free distribution by T.S. Government 2019-20

61

Bu topshiriqning nomi “So‘z labirinti” (Word maze) bo‘lib, xorij darsliklarida bundan ko‘p foydalaniladi. Bu topshiriqda o‘quvchilar ushbu labirintdan turli xil meva va sabzavotlarning nomlarini topishadi. Misol uchun, *tomato* – pomidor. Bu kabi topshiriqlar o‘quvchilarning mavzuviy lug‘atlarini shakllantirishga yordam beradi va o‘quvchilarni qiziqtirib, o‘ziga jalb qiladi.

IV. Play the game of stepping stones by writing the correct words in the blanks.



The diagram shows a path of stepping stones starting from 'The start' and ending at 'The end'. Each stone contains a phrase with a blank space for a word. The stones are arranged in a zig-zag pattern. The phrases are: 'not dead alive', 'not small', 'not hot', 'not liked', 'makes us laugh', 'snow house igloo', 'not soft', 'not bad', 'not wise', 'not west', 'dogs home', 'not dark', 'magicians do this', 'not old', 'not yours', 'not push', 'smaller than a town', 'not lower', 'runs on rails', 'not teacher', 'not unripe', 'not king', 'moving air', 'festival on Dec 25th X-mas', 'not old', 'a striped animal', 'The end'.

80

Free distribution by T.S. Government 2019-20

Darslikda yana bir qiziq lug‘at ustida ishlashga doir mashq ko‘zga tashlanadi. Bu topshiriqda o‘quvchilarning berilgan izoh asosida so‘zni topa olishlari tekshiriladi. Bunda o‘quvchilar mavjud bosh harflardan foydalangan holda shu izohga to‘g‘ri keladigan so‘zni yozadi. Masalan, not small – big. (kichik emas – katta)

Xulosa qilib aytganda, ushbu darslik o‘quv lug‘atlari yaratish uchun haqiqiy namuna bo‘la oladi. Chunki bu darslikda lug‘at mashq va topshiriqlari keng, batafsil, tushunarli, qiziqarli, asosiysi, bir-birini takrorlamaydigan holda berilgan. Bu kabi

mashq va topshiriqlardan foydalanilgan lug‘atlar, o‘ylaymizki, har qanday vaqtda o‘z samarasini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. My English world. Class 5. The government of Telangana, Hyderabad. Department of school education. 2019-20.
2. Rashidova M. Til ta’limida xorijiy ilg‘or tajribalar ta’siri va O‘zbekiston ta’lim tizimidagi islohotlar // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, N22. 2023. 89-92-betlar.